

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ALOQA, AXBOROTLASHTIRISH VA
TELEKOMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI DAVLAT QO'MITASI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
SAMARQAND FILIALI

Kompyuter injinirng fakulteti
Axborot texnologiyalari kafedrası

Z. Maxmudov, U. Murodov, Sh. Isroilov

«TIZIMLI DASTURIY TA'MINOT» FANIDAN KURS ISHLARINI
BAJARISH BO'YICHA

USLUBIY KO'RSATMA

Samarqand-2013

Ushbu uslubiy ko'rsatma IV-semestrida 5330200 – “Informatika va axborot texnologiyasi”, 5111000 – “Kasb ta'limi (Informatika va axborot texnologiyalari)”, 5610600- “Xizmat ko'rsatish texnikasi va texnologiyasi” yonalishi bo'yicha ta'lim olayotgan kunduzgi bo'lim talabalari uchun mo'jallangan bo'lib, “Tizimli dasturiy ta'minot” fanidan kurs ishlarini o'tkazish bo'yicha barcha yuriqnomalarni va kurs ishi variantlarini o'z ichiga olgan

Uslubiy ko'rsatmadan “Tizimli dasturiy ta'minot” fanini o'rganayotgan talabalar foydalanishi mumkin.

Mualliflar: “Axborot tenologiyalari” kafedrası
mudiri Z. Maxmudov
“Axborot tenologiyalari ” kafedrası
katta o`qituvchisi U. Murodov
“Axborot tenologiyalari ” kafedrası
assistenti Sh. Isroilov

Uslubiy ko'rsatma «Axborot texnologiyalari» kafedrasining 2013 yil № - sonli majlisida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan.

Soʻz boshi

Maʼlumki, insoniyat ibtidoiy jamoa tuzumi davridanoq oʻzining jismoniy mehnatini yengillatish maqsadida koʻplab texnologiyalarni vujudga keltirgan. Yaʼni ular qoʻl mehnatini yengillatish uchun qurol yasab texnik mexanizmlar yaratishga asos soldi.

Jamiyat taraqqiyotining olgʻa siljishi eng avvalo inson omiliga bogʻliqdir. SHuning uchun ham inson oʻz tafakkuri aql-zakovatini koʻproq ijodiy ishlariga jalb qilish shartligi eʼtirof etilmoqda. YAngidan yangi texnik qurilma va vositalarni kashf qilish insonni oʻz yashash sharoitiga, qilayotgan ishiga, ilmiy-texnik izlanishlariga ijodiy yondashish samarasidir. XX asrga kelib insoniyat qoʻl mehnatinigina emas, balki aqliy mehnatini ham yengillatish ustida anchagina izlanish olib bordi. Bu yoʻlda koʻplab texnik qurilmalar yaratildi va amaliyotga tadbiq etildi. Xuddi shunday texnik qurilmalardan biri kompyuter – elektr hisoblash mashinalari (EHM) dir.

Kompyuterni joriy qilinishi xalq xoʻjaligining turli soxalarida ishlab chiqarish texnologiyasini tubdan oʻzgarishini tobora oshirib, odamlarning ish sharoitlarini yaxshilanishiga olib keldi. Ayni paytda faol faoliyat koʻrsatish jarayonida insonda bir yoʻl koʻplab sohalarga oid axborot va maʼlumotlarni yigʻish, hisoblash jarayonlarini tezlatish zaruriy extiyoji tugʻildi. EHMLar ana shunday juda katta maʼlumotlarni tez «*koʻrib chiqish*», hamda juda oz vaqtda katta aniqlikda qaror qabul qilish imkoniyatini berdi.

“Jahon sivilizasiyasiga dahldor boʻlgan eng zamonaviy ilmlarni egallamay turib, mamlakat taraqqiyotini taʼminlash qiyin”, - degan edilar I.Karimov. Oʻzbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida yuqori natijalarga erishishi, jahon iqtisodiy tizimida toʻlaqonli natijalarga toʻlaqonli sheriklik oʻrnini egallay borishi, inson faoliyatining barcha jabhalarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan yuqori darajada foydalanishning koʻlamlari qanday boʻlishiga hamda bu texnologiyalar ijtimoiy mehnat samaradorligining oshishida qanday rol oʻynashiga bogʻliq. Demak, zamonaviy kompyuterlardan amalda keng foydalana oladigan yetuk kadrlar tayyorlash kechiktirib boʻlmaydigan vazifadir.

Boʻlajak mutaxassislar kompyuter bilan muloqot jarayonida mavjud dasturiy vositalardan foydalanib turli shaldagi axborotlarni qayta ishlaydilar. SHuning uchun mavjud dasturiy vositalardan foydalanishni, yaʼni tizimli dastur taʼminotlari: operasion tizimlar, qobiqli dasturlar, drayver dasturlari, antivirus va arxivator dasturlarida ishlash malakalarini hosil qilish va oʻrgatishda «Tizimli dastur taʼminoti» fanining oʻrni katta ahamiyatga ega.

SHu maqsadda ushbu uslubiy koʻrsatma kasbiy taʼlim «Informatika va AT» va boshqa yoʻnalishdagi barcha taʼlim talabalar uchun moʻljallangan boʻlib, u fanni oʻqitishda Respublikamizda toʻplangan koʻp yillik pedagogik tajribalarni ilmiy tahlildan oʻtkazish natijasida hosil boʻlgan xulosalarga hamda Davlat taʼlim standartlariga mos naʼmunaviy dastur va unga mos ishchi dasturlarga asoslangandir.

Ushbu uslubiy ko'rsatma Davlat ta'lim standartlariga mos namunaviy dastur hamda unga mos ishchi dasturlar asosida tuzilgan bo'lib, «Tizimli dasturiy ta'minot» fanidan muayyan kurs ishlarini bajarishga mo'ljallangan.

Talabalarning fanni o'zlashtirishida kurs ishlarining roli va ahamiyati

O'zbekiston Respublikasining «Oliy ta'lim haqida»gi nizomida (1998 yil 305-sonli buyrug'iga asosan qabul qilingan) Oliy ta'limning asosiy vazifalari qatorida quyidagilar ko'rsatilgan:

- davlat ta'lim standartlariga muvofiq ilg'or, zamonaviy ta'lim va kasb-hunar dasturlari asosida yuqori samarali o'qitishni tashkil etish va malakali kadrlar yetishtirishni ta'minlash;
- mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanish istiqbollari, jamiyat talablariga binoan fan, texnika, ilg'or texnologiya, iqtisodiyot va madaniyatning zamonaviy yutuqlari asosida kadrlar o'qitishni tashkil etish va uning uslublarini muntazam takomillashtirish;
- o'quv amaliyotiga yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini kiritish, o'qitishni masofaviy vositalar bilan ta'minlash;
- talabalarning ilmiy tadqiqotlari va ijodiy faoliyatlari orqali fan va texnikani rivojlantirish.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishdan bosh maqsad va pirovard natija har jihatdan barkamol avlodni tarbiyalash, XXI asrning erkin fikrli shaxslarni voyaga yetkazishda namoyon bo'ladi.

Ta'limda yoshlarni shaxsiy o'quv qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish va ularni rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi. Ta'lim tizimini hayot bilan, davlatimiz siyosati bilan bog'lash prinsipi Oliy ta'lim tizimi, O'zbekiston maktablari, kasb-hunar kollejlari oldida turgan eng muhim vazifa bo'lib qoladi. Hozirgi o'tish davrida kelajagi buyuk davlat qurishga va dadil qadamlar bilan bu vazifani amalga oshirishga qodir bo'lgan barkamol avlodga ta'lim-tarbiya berish ta'limning asosiy vazifasidir.

Demak, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablaridan kelib chiqib, bugungi kun har bir yoshdan, har bir talabadan yaxshi mutaxassis bo'lishni, o'zi egallagan sohaning mohir ustasi bo'lishni talab qiladi. SHundan kelib chiqib, turli fanlarni o'zlashtirishda talabalarning mustaqil tayyorgarliklariga alohida etibor beriladi. Mustaqil tayyorgarlikning eng maqbul yo'llaridan biri bu kurs ishlaridir.

Kurs ishlari ya'ni kurs loyihalari talabani mustaqil ta'lim olishining eng mahsuldor davri bo'lib, mustaqil ta'limning ushbu shaklidan foydalanish yuqori malakali mutaxassis tayyorlashga asos bo'lib xizmat qiladi.

Kurs ishini bajarish bosqichlari.

Kurs ishlari barcha predmetlardan o'sha predmet o'tilayotganda mustaqil topshiriq sifatida beriladi. Talaba kurs ishini bajarish mobaynida ma'ruza, amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari, mustaqil ta'lim bosqichida olgan bilimlarini umumlashtirib, ularni amalda qo'llay olishi, qo'yilgan muayyan masalani ijodiy hal ztishi lozim. Buning uchun talaba o'quv va ilmiy adabiyotlarni mustaqil o'qiydi, tahlil qiladi va rahbaridan maslahatlar oladi, sxema va chizmalarni tayyorlaydi, mutaxassislar yordamida muhokama qiladi va ishni himoyaga tavsiya qiladi.

Demak, qisqa vaqt ichida talabaning eng ko'p bilim olishini ta'minlashi tegishli kafedra va rahbarning kurs ishlarini samarali tashkil qilishiga bog'liq.

O'quv yili boshlanishida fan bo'yicha mustaqil ta'lim uchun kurs ishi ajratilgan taqdirda o'qituvchilar unga tegishli mavzular bo'yicha asosiy va qo'shimcha adabiyotlar (nomi, muallifi, bobi, paragrafi, sahifalari) haqida talabalarga batafsil ma'lumot bermog'i, kurs ishi bo'yicha o'zining maslahat beradigan hafta kuni, soati va xonasini aytmog'i lozim. Kafedra o'qituvchilarining talabalarga maslahatlar berish jadvali kafedraning e'lonlar doskasiga osib qo'yiladi (mustaqil ta'lim soati dars jadvaliga kiritilmagan bo'lsa).

Kurs ishini bajarishda talabaga o'z ishini quyidagi tartibda tashkil qilishni tavsiya etish mumkin.

- kurs ishi mavzulari bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda faol ishtirok etish;
- mavzuga tegishli nazariy qismni adabiyotlardan foydalanib, sinchiklab o'rganib chiqish va konspekt qilish;
- mavzu bo'yicha masalalarning yechish algoritmlarini tuzish;
- o'z varianti bo'yicha hisob grafik ishlarini bajarish, algoritmlarga mos dastur ta'minotlari yaratish, natijalarni tahlil qilish;
- bajarilgan kurs ishini o'qituvchiga ko'rsatib, to'g'ri yechilganligini tekshirish;
- kurs ishini rasmiylashtirish;
- kurs ishini himoya qilish.

Odatda kurs ishlari yozishda o'qituvchi rahbarligida tanlab olingan mavzu uchun talaba mustaqil reja tuzadi. Kurs ishini bajarish jarayonida o'qituvchi rahbardan muntazam ravishda maslahatlar olib turadi. Kurs ishlarini nazorat ishlaridan farqi shuki, bunda talabalar aniq mavzu bo'yicha mustaqil ravishda tegishli adabiyotlarni o'qib chiqib, mustaqil fikr yuritadi va kichik muammolarni yechib berishga o'zining hissasini qo'shadi. Nazorat ishlarida esa oldindan tayyorlab qo'yilgan savollarga javob qaytariladi. Ularning hajmi kurs ishlarining hajmiga nisbatan kichik bo'ladi.

Demak, kurs ishlari talabalarni ilmiy tadqiqot ishlari olib borish malakasini hosil qilishga, ma'lum ilmiy harakterga ega bo'lgan ma'ruzalar yozishga o'rganishga chorlaydi. Kurs ishlari talabalarni o'quv tadqiqot ishlarining asosiy shakllaridan birini tashkil etadi.

Kurs ishini bajarilish sifatini baholash.

Muayyan fan uchun talabalar bilimini baholash mezonini tuzayotganda mustaqil ta'limga ajratilgan qismlar bo'yicha talaba olishi mumkin bo'lgan ballarni albatta ko'rsatish lozim. Ta'lim yo'nalishlari Davlat standartlarida o'quv mashg'ulotlari (ma'ruza, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, seminar mashg'uloti) uchun ajratilgan soatlarga nisbatan mustaqil ta'lim soatlari o'rtacha 20-25% ekanini hisobga olib, mustaqil ta'lim bo'yicha talaba bilimini baholashga joriy va oraliq baholashdan ballar ajratilishi mumkin. Masalan, joriy baholashdan bittasi va oraliq baholashdan bittasini (umumiy ballning 20-25% atrofida) ajratish mumkin.

Albatta, bunda mustaqil ta'limga ajratilgan fan bo'lagining hajmi, topshiriqlar mazmuni, ularni bajarish muddatlari va fanning o'ziga xos xususiyatlari kabilarni e'tiborga olish lozim.

Mustaqil ta'limni tashkil etishni bajarish, ilmiy-metodik jihatdan takomillashtirish, yangi baholash mezonlarini joriy etish kabi masalalarni kafedra majlislarida, fakultet ilmiy-metodik kengashlarida muhokama qilib beriladi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, o'quv rejasidan fanlar uchun ajratilgan soatlarni tahlil qilish natijasida, hamda reyting tizimi talablaridan kelib chiqib, talaba bilimini tabaqalashtirib baholash maqsadida kurs ishlari uchun max-100 ball ajratiladi.

Max ball	qoniqarsiz	qoniqarli	yaxshi	A'lo
100	0-54	55-70	71-85	86-100

Kurs ishlari Davlat ta'lim standartlari asosida tuzilgan rejaga ko'ra qabul qilingan na'munaviy dasturda, hamda shu asosda tuzilgan ishchi dasturda ko'rsatilgan bo'ladi.

«Tizimli dasturiy ta'minot» fanining xususiyatlaridan va fanni o'zlashtirishda qo'yilgan talablardan kelib chiqib, quyidagi na'munaviy kurs ishi topshiriqlari talabalarga tavsiya etiladi.

Talabalar kurs ishlarini bajarishda berilgan mavzu buyicha quyidagi tartibda bajaradilar.

1. Kirish kismida topshirik buyicha berilgan tizimli dastur ta'minotining vazifasi va uning imkoniyatlari, undan shaxsiy kompyuterdagi foydalanish axamiyati xakida bayon etadilar.
2. Asosiy kismda topshiriklar quyidagi tartibda bajariladi.
 - Berilgan dastur ta'minotini shaxsiy kompyuterga urnatish va uni sozlash bayon etiladi.
 - Tizimli dastur ta'minotining ishchi muxiti va undan foydalanish izoxlanadi.
 - Tizimli dastur ta'minotidan foydalanishni urgatuvchi elektron kulanmani tayyorlanadi.

3. Xulosa kismida talaba kurs ishi buyicha bajargan ishlari xakida va kurs ishlarini bajarishda egallagan bilim va kunikmalari xakida kiskacha bayon etadi.

Talabalar kurs ishlarini bajarishda berilgan mavzu buyicha kuyidagi tartibda bajaradilar.

3. Kirish kismida topshirik buyicha berilgan tizimli dastur ta'minotining vazifasi va uning imkoniyatlari, undan shaxsiy kompyuterdagi foydalanish axamiyati xakida bayon etadilar.

4. Asosiy kismda topshiriklar kuyidagi tartibda bajariladi.

- Berilgan topshirikni maksadi va asosiy bajarilishi kerak bulgan ishlar bayon etiladi.
- SHaxsiy kompyuterda berilgan topshiriklar bajariladi va bajarilgan ishlarning xisoboti tayyorlanadi.

3. Xulosa kismida talaba kurs ishi buyicha bajargan ishlari xakida va kurs ishlarini bajarishda egallagan bilim va kunikmalari xakida kiskacha bayon etadi.

Kurs ishlari mavzulari ro'yxati.

№	Курс иши мавзулари	
1	Файл тизимлари FAT, NTFS, VFS ва уларнинг афзаллик томонлари.	
2	Аппарат узилишлар ва уларнинг қўлланилиш соҳалари.	
3	Дастурий узилишлар ва уларнинг қўлланилиш соҳалари.	
4	Резидент дастурлар ва улардан фойдаланиш.	
5	Замонавий компиляторлар ва уларнинг асосий хусусиятлари.	
6	Идентификаторлар жадвали учун Хэш функция яратиш.	
7	Динамик структурали маълумотлар асосида бинар дарахтини куриш.	
8	Синтаксис тахлилчилар куришни автоматлаштириш.	
9	Қийин структурали маълумотлар учун динамик хотира ташкил этиш.	
10	Компиляторлар яратиш.	
11	Интернет тармоғи учун дастурий таъминот ишлаб чиқиш.	
12	Редукция учун дастур тузиш	
13	Чекли автомат асосида чапчизикли грамматикани куриш.	
14	Тил учун чапчизикли грамматикада берилган регуляр ифодалашни амалга ошириш.	
15	Си тиллари бутунсонли константаларини лексик тахлилчиси.	
16	Регуляр тўпламларни амалга ошириш.	
17	Pascal тили бутунсонли константаларини лексик тахлилчисини яратиш.	
18	C++ тилида ёзилган дастур матнидан барча изохларни топадиган ва ўчириб ташлайдиган сканерни куриш	

19	Курилган автоматни детерминирланган кўринишга айлантириш.	
20	Лексик анализаторларни куришни автоматлаштириш.	
21	Синтаксис анализаторларни куришни автоматлаштириш.	
22	Идентификаторлар жадвалини аралаш усул билан куриш.	
23	Курилган автоматни детерминирланган кўринишга айлантириш	
24	Тугалланган автомат асосида чапчизиқли грамматикани куриш.	
25	Скаляр турдаги ўзгарувчилар учун хотирани ташкил қилиш	

Asosiy qism

Mavzular fanni o`qitish boshlanishi bilan bo`lib beriladi. Fan 4-semesterda o`tiladi. Kurs ishini bajarish 4-semesterda amalga oshirilib, semestr davomida «Tizimli dasturiy ta`minot» fanidan o`tilgan mavzular asosidagi egallangan bilim va malakalar asosida bajariladi. Kurs ishi rahbari xar bir tayyorgarlik bosqichini nazorat qilib va baholab boradi. Tegishli maslahatlar beradi.

«Tizimli dasturiy ta`minot» fanidan bajarilgan kurs ishi quyidagi talablarga javob berishi kerak.

- kurs ishiga reja tuzilgan bo`lishi va rejaga ko`ra barcha ma`lumotlar tartib bilan yoritilishi
- Berilgan topshiriq bo`yicha muayyan mavzuga doir nazariy ma`lumotlar yetarli darajada berilishi
- Berilgan tizim bo`yicha bajariladigan ishlarni chukur taxlil etib, unda ishlash jarayonlarini kursatish va tizimli jarayonlarni amalga oshirish.
- Tizimdan foydalanishda tizim ish unumdorligini oshirishni tahlil qilish.
- Mavzu bo`yicha elektron ko`rsatma yaratish.
- va nihoyat kurs ishini bajarishda talaba qanday muammolarni qay darajada xal qila olganligi xulosa qismida ko`rsatilgan bo`lishi kerak.

Yuqoridagi talablarning nechog`lik bajarilishiga qarab kurs ishini baholanadi.

Baholar dekanat tomonidan berilgan reyting ballarni qayd qilish varaqalarida qayd qilib boriladi. Bunday topshiriq varaqasi esa kurs ishi topshirig`i berilgan vaqtda to`ldiriladi va kafedra tomonidan tasdiqlanadi.

Unda kurs ishi mavzusi, mustaqil ishning mazmuni, kurs ishini bajarish bosqichlari, asosiy tavsiya qilinadigan adabiyotlar va himoya vaqti ko`rsatilgan bo`ladi.

«Informatika va axborotlar
texnologiyasi» kafedrası

Tasdiqlayman:

Kafedra mudiri:

_____dots. Z.M. Maxmudov.

K U R S I S H I

_____ fani bo`yicha

Guruh_____talaba_____Rahbar_____

V A Z I F A

1. _____
_____ mavzusidagi topshiriq

2. Dastlabki ma`lumotlar

3. Foydalanilgan materiallar _____

4. Kompyuterda bajarilgan qismlarning mazmuni

- 1) _____
- 2) _____
- 3) _____
- 4) _____

5. Tushuntirish qismning mazmuni _____

6. Qo`shimcha vazifa va ko`rsatma _____

7. Kurs ishini topshirish muddati

1	2	3	4	Tushuntirish xati	Ximoya

Rahbar _____

(imzo)

(sana)

Talaba _____

(imzo)

(sana)

Quyida talablarga to'la javob beruvchi na'munaviy kurs ishini tavsiya qilamiz. Bu talabalarning kurs ishini bajarishdagi mustaqil tayyorgarligiga ijobiy yordam beradi.

Mavzu. WINDOWS operasion tizimining xizmatchi dasturlari haqida ma'lumot

Reja:

1. Kirish
2. Asosiy kism
 - 2.1. Windows operasion sistemasini xizmatchi dasturlari haqida ma'lumot
 - 2.2. Ma'lumot fayllarini arxivlashni tashkil etish.
 - 2.3. Tizimni kayta tiklash.
 - 2.4. Diskni defragmentasiya qilish va kompyuter ish samaradorligini oshirish.
 - 2.5. Fayl va parametrlarni ko'chirish ustasi bilan ishlash.
 - 2.6. Topshiriqlarni avtomatik ishlatishni o'rnatish.
 - 2.7. Mavzu bo'yicha elektron darslik tayyorlash
3. Xulosa
4. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Windows operasion sistemasini xizmatchi dasturlaridan foydalanish

Servis dasturiy ta'minoti-foydalanuvchiga kompyuter bilan ishlashda qo'shimcha xizmatlar taqdim etuvchi va operasion tizimlar imkoniyatlarini oshiruvchi dasturiy maxsulotlar jamg'armasidan iborat.

Biroq, funksional imkoniyatlarga ko'ra, servis vositalarini quyidagi vositalarga bulish mumkin:

- foydalanuvchi interfeysini yaxshilovchilar;
- ma'lumotlarni buzilish va qoidasiz kirishlaridan ximoya qiluvchilar;
- ma'lumotni qayta ishlovchilar;
- disk va tezkor xotira qurilmasi o'rtasida ma'lumot almashuvini tezlashtiruvchilar;
- virusga qarshi vositalar.

OT ning sozlovchisi bo'lgan qobiqlar operasion qobiqlar deb ataladi. Utilitlar va avtonom dasturlar tor ixtisoslashgan bo'lib, har biri o'z vazifasini bajaradi. Biroq utilitlar avtonom dasturlardan farqli ravishda tegishli qobiqlar muhitida bajaradi. Qobiq foydalanuvchiga sifat jihatdan yangi interfeys taqdim etadi. OT foydalanuvchi operasiya va buyruqlarini ikir-chiqirigacha bilishdan ozod etadi.

Utilitalar foydalanuvchiga qo`shimcha xizmatlarni asosan disklar va faylli tizimlar bo`yicha xizmat ko`rsatish ko`rinishida taqdim etadi. Utilitalar quyidagi vazifalarni bajarishga yul qo`yiladi:


- -disklarga xizmat ko`rsatish;
- -fayl va kataloglarga xizmat ko`rsatish (xuddi qobiqlar kabi);
- -arxivni yaratish va yangilash;
- -turli rejim va formatlarda matnli va boshqa fayllarni bosish;
- -kompyuterni virusdan ximoya qilish.

Virusga qarshi ximoyali dasturiy vositalar viruslarni topish va davolashni ta`minlaydi.


Texnik xizmat ko`rsatish dasturlari deganda kompyuter ishi jarayoni yoki umuman hisoblash tizimida diagnostika va xatolarni topish uchun dasturiy-apparat vositalarining jamlanmasi tushuniladi. Ular quyidagilarni o`z ichiga oladi: EHM va uning ayrim qismlari ishining to`g`riligi diagnostik va test nazorati vositalari shu jumladan ularning EHMda muayyan lokalizatsiyasi bo`lgan xatolar va shikastlanishlarni avtomatik izlash. Axborot tizim hisoblash muhiti diagnostik va nazorat kilishning maxsus dasturlari.

Windows muxiti xizmatchi dasturlari «Pusk» tugmasida joylashgan bo`lib, «**programma`**» bo`limidagi standart dasturlar sirasiga kiradi. Standart dasturlar ichida alohida «**slujebno`e**» bandida joylashgandir. Ular sirasiga

1. **Arxivasiya dannox**
 2. **Vosstanovlenie sistemo`**
 3. **Defragmentasiya diska**
 4. **Master perenosa faylov i parametrov**
 5. **Naznachennoe zadaniya**
 6. **Ochistka diska**
 7. **Svedeniya o sisteme**
 8. **Tablisa simolov**
1. «**Arxivasiya dannox**» bo`limiga kirganda birinchi bo`lib quyidagi oyna hosil bo`ladi





Ushbu dastur yordamida qattiq diskdagi mavjud fayllarni arxivlash va arxivlangan fayllarni tiklash mumkin.



2.«**Vosstanovlenie sistemo`**» Sistemani tiklash xizmatchi dasturi kompyuterni oldindan belgilangan kun xolatiga kaytarib, shu belgilangan kundan beri kilingan xavfsiz o`zgartirishlardan voz kechadi. Uni mulokot oynasi quyidagicha.

Diskdagi axborotlar tartibsiz joylashishi bizga ma`lum. Chunki xajmi xar-xil bulgan axborotlarni diskka yozish va uchirish diskda xar-xil joylarida bush joylarni kolishiga va diskdagi axborotlarni bir kismi bir joyda, kolgani boshka joyda saklanishiga olib keladi. Bu esa kompyuter tezligini sezilarli darajada pasaytiradi. Bu kamchilikni tugrilash uchun axborotlarni yaxlit saklanishiga erishi kerak buladi. Buning uchun «difragmentasiya diska» xizmatchi dasturidan foydalanemiz. yoki aksincha «**moy kompyuter**» dasturi oynasida defragmentasiya qilinishi lozim bo`lgan diskni ustiga sichqoncha ko`rsatkichini olib kelib, sichqonchani o`ng tugmasi bosiladi va chiqqan muloqot oynasidan «svoystva» amalini tanlanadi.







So`ng ekranda diskka xos axborotlar bilan birgalikda servis xizmatini bajaruvchi oyna ham nomoyon bo`ladi.

3. Bu oynadan «**Vo`polnit defragmentasiyu**» amalini tanlashimiz mumkin. YUqoridagi Pusk tugmasi orqali kirish yoki servis bo`limidan defragmentasiya qilish bu ahamiyatsiz. Aslida pirovard natija bir xil.

O`ng tamonda siz defragmentasiya uchun disk tanlash maydonini ko`rib turibsiz. Disk tanlangandan so`ng Enter tugmasi bosiladi va shu bilan defragmentasiya jarayoni boshlanadi. Defragmentasiya jarayonida boshqa dasturlarni ishlatish tavsiya etilmaydi. Chunki dasturlar ishlaganda disklarda qandaydir yozuvlar o`zgarishi xosil bo`ladi. Bu defragmentasiya ishiga xalaqit beradi. Defragmentasiya bu fayllar fragmentlari ya`ni bo`laklarini aloxida -aloxida emas, balki bir bo`lak bo`lib saqlanishiga xizmat qiladi va bu kompyuter ishlashini tezlashtiradi. Qo`yida defragmentasiya dasturi oynasi misol keltirilgan.




Demak defragmentasiya aloxida-aloxida ajralib, disk bo`ylab sochilib ketgan fayl fragmentlarini qaytadan bir joyga to`plab, fayllarga murojaat qilish tezligini oshiradi. Bu bilan u kompyuterni ishlash tezligini ham oshiradi.



4. Master perenosa faylov i parametrov

«Master perenosa faylov i parametrov» bo`limiga kirishda quyidagi oyna hosil bo`ladi


1. Master fayllarini, parametrlarini bir boshlang`ich kompyuterni ikkinchi bir yangi kompyuterga o`tkazish imkoniyatini.
2. O`tkazish ustasi yordamida Internet Explorer va Outlook Express dasturlari parametrlarini, ishchi stoli parametrlari, ekran parametrlarini masofaviy o`qitishlarini va boshqa parametrlarini o`tkazish mumkin.
3. Ish boshlashdan oldin kompyuterdagi barcha ishlarni tugatish lozim.
5. «**Naznachenno`e zadaniya**» bu dastur foydalanuvchiga dasturlarni bajarish uchun jadval tuzishga yordam beradi. Bu dasturlar xizmatchi dasturlar yoki



boshqa dasturlar bo`lishi mumkin.

Bu «**Naznachenno`e zadaniya**» dasturi yordamida dasturlarni bajarish jadvalini tuzishga kirish.«Dalee» (olg`a) tugmasi bosilishi bilan ekranda yangi mulokot oynasi ya`ni quyida ko`rsatilgan rasmdagi oyna-bajarilishi lozim dasturlarni tanlash oynasi nomoyon bo`ladi. Bu muloqot oynasi yordamida jadval bo`yicha qaysi dasturni ishlatish

kerakligi tanlanadi.




Oynada oldindan o`rnatilgan Windows tizimi yordamchi dasturlari sirasiga kiruvchi dasturlar mavjud. Foydalanuvchi ular orasidan ixtiyoriysini tanlab va keyingi oyna yordamida, ushbu dasturni qachon, qaysi payt bajarish lozimligi ko`rsatiladi. SHunday qilib tanlangan dastur siz tayinlagan

vaqtda ishga tushadi.

Aytaylik bu dastur biror-bir antivirusdir yoki boshqa bir hizmatchi dasturdir bu foydalanuvchiga havola.

Hizmatchi dasturlar



6.«**Ochistka diska**» dasturi bilan tanishamiz. Bu dastur diskda keraksiz fayllar hisobidan bo`sh joylar xosil qiladi. Demak keraksiz, vaqtinchalik fayllarni o`chirishda yordam beradi. Nomidan kelib chiqib diskni tozalaydi degan xulosaga kelsak ham bo`ladi. Mana bu «Ochistka diska» ya`ni diskni tozalash dasturini boshlang`ich oynasi.

Bu oynada keraksiz fayllarni qaysi diskdan o`chirish lozimligini ko`rsatish kerak bo`ladi. Xozirda bizda s: diskni tanlangan xolati ko`rsatilgan.

"Temporary Internet Files" papkasi qattiq diskda Web saxifalarini tez ko`rish uchun saqlaydi. "Temporary Internet Files" uchun sizning o`rnatilgan xolatlar o`zgartirishsiz qoladi.

"Downloaded Program Files" papkasida Internetdan bir necha sahifalarni ko`rish orqali avtomatik qabul qilinuvchi axborotlar, Active elementlari va boshqalar vaqtinchalik saqlanadi.


«Korzina» o`zida foydalanuvchi o`chirgan fayllarni saqlaydi. Bu fayllar hali to`la o`chirilgan emas. Qachonki «Korzina» tozalangungacha o`zida ushbu fayllarni o`zida saqlab turadi.

Bir qancha dasturlar vaqtinchalik ma`lumotlarni TEMP papkasida saqlaydi. Dastur ishini yakunlashidan oldin bu ma`lumotlar o`chiriladi.

Agar bu vaqtinchalik fayllarga hafta oralig`ida murojaat qilinmagan bo`lsa, ularni o`chirish mumkin.

«PC Health» kompyuterni doimiy to`g`ri ishlashini ta`minlaydi. U xar qachon o`rnatilgan fayllardan nusxalar olib qo`yadi. Ushbu parametr keraksiz nusxalarni o`chiradi.


Qo`yida «Ochistka diska» dasturini qo`yishimcha amallari aks etgan oyna keltirilgan.



«Komponento` Windows» Windows ni fodalanil-mayotgan komponentlarini o`chirib qo`shimcha joy bo`shatish.


«Ustanovlenno`e programmo`» foydalanilmayotgan dasturlarni o`chirib joy xosil qilish.

7. Svedeniya o sisteme



Sistema haqida ma`lumot beradi.



8. **Tablisa simolov** bu bo`limda Microsoft Word va klaviaturada yo`q tugmachalar, shriftlar haqida ma`lumot beradi.




«Windows operasion sistemasini xizmatchi dasturlari» mavzusi bo'yicha elektron ko'rsatma.

Elektron ko'rsatmani yaratishda Front Page 2003 dasturidan foydalanamiz. Microsoft FrontPage redaktori tarkibiga kiruvchi FrontPage editor dasturi - World Wide Web sahifalarini yaratish, tahrirlash va nazorat qilish dasturidir. Matnlarni kiritish, tahrirlashda, har xil formalar va Web sahifalar uchun boshqa elementlarni kiritish uchun juda qulay bo'lib, bu dastur orqali tayyorlangan Web sahifalarni xuddi brauzerlarda ko'rayotgandek ko'rish imkonini ham beradi. FrontPage editor dasturidan foydalanib Web sahifalar yaratish uchun, u HTML tili haqida bilim talab qilmaydi, bu tilni o'zlashtirmasdan ham ko'pgina Web sahifalar yaratish imkonini beradi va u sahifalarni avtomatik ravishda HTML tili kodiga aylantirib beradi. Bulardan tashqari FrontPage editor HTML tili kengaytmasi imkoniyatlarini hosil qilishga ham, ya'ni, xuddi fremlar ko'rinishida, ActiveX muhitida boshqarish, Java applets VB Scripts - dasturlash tillarini ham qo'llab-quvvatlaydi.

Tayyorlangan eletron ko'rsatmaning ekran ko'rinishlari quyidagicha.





Xulosa

Men bu Tizimli dasturiy ta'minot fanidan yozgan kurs ishida Windows operasion sistemasini xizmatchi dasturlari ustida turli xil amallarni bajarishni o'rgandim. Bular diskni difragmentatsiya qilish, diskni tozalash, tizim haqida ma'lumot olish, tizimni tiklash va hokazo ishlarni o'rgandim.

Bundan tashkari Windows operasion sistemasini xizmatchi dasturlari bo'yicha elektron ko'rsatmani yaratdim. Ushbu elektron kursatmadan Windows operasion sistemasini xizmatchi dasturlari uranuvchilar foydalanishlari mumkin. WEB saxifa va elektron darslik yaratish xakida xam nazariy ma'lumot xamda amalda bajarishni urgandim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati.
Asosiy adabiyotlar:

1. G'ulomov S.S. va boshqalar. Iqtisodiy informatika: OUYU iqtisodiy mutaxassisliklar uchun darslik. S.S. , A.T. SHermuxamedov, B.A. Begalov S.S./ulomovning umumiy tahriri ostida -T- O`zbekiston 1999-207-266 betlar.
2. X.Кастер. «Основы WINDOWS NT и NTFS». Microsoft Press. 1996 г.
3. А. Робачевский. «Операционная система UNIX». Санкт-Петербург. 1997 г.
4. Электронная справочное руководство NT 5.0 или WINDOWS 2000
5. Операционная система UNIX (Электронная справочное руководство пользователя).
6. Гринзоу Лу. «Философия программирования для Windows 95/ NT» Символ-Плюс, 1997 г.
7. А. Sattorov, В. Kurbonboev "Informatika va xisoblash texnikasi asoslari". T.: "Ukituvchi" 1996.
8. S.A.Aripov, SH.R. YUsupov, I.R. Kamalov "Beysik dasturlash tili". T.: "Navruz" 1994.
9. S.I. Raxmonkulova "IBM PC shaxsiy kompyuterlarida ishlash". T.: NMK, "SHark-Instar" 1996.

Qo`shimcha adabiyotlar.

1. www.googl.ru
2. www.Ziyonetl.uz
3. www.km.ru

Mundarija.

1. Soʻz boshi.....	3
2. Talabalarning fanni oʻzlashtirishida kurs ishlarining roli va ahamiyati.....	4
3. Kurs ishini bajarish bosqichlari.....	5
4. Kurs ishini bajarilish sifatini baholash.....	6
5. «Tizimli dasturiy taʼminot» fanidan naʼmunaviy kurs ishi mavzulari.....	7
6. Asosiy qism.....	8
7. Kurs ishi varaqasi.....	9
8. Naʼmunaviy kurs ishi.....	10
9. Xulosa.....	19
10. Foydalanilgan adabiyotlar.....	20
11. Mundarija.....	21